



TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNI XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI ASOSIDA BAHOLASH VA HISOBGA OLIH MUAMMOLARI

PROBLEMS OF INVENTORY VALUATION AND ACCOUNTING BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS

¹Xudoyberdiyev Odiljon
Egamberdi o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD.
ORCID: 0000-0002-7053-7837, E-mail: odil1101@mail.ru

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada tovar-moddiy zaxiralarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida baholash va hisobga olish masalalari o'rganilgan. Tadqiqot davomida IAS 2 "Inventories" standarti talablari, zaxiralarni baholash usullari hamda ularni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, milliy buxgalteriya hisobi amaliyoti va xalqaro standartlar o'rtasidagi farqlar o'rganilib, ularni bartaraf etish yo'llari asoslab berilgan. Tadqiqotda statistik tahlil usullari asosida zaxira aylanish koeffitsienti, zaxira yo'qotish darajasi hamda IFRS standartlarini joriy etish samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalari tovar-moddiy zaxiralarni xalqaro standartlar asosida hisobga olish korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirishini ko'rsatdi.

Eng. - This article examines the issues of inventory valuation and accounting based on international financial reporting standards. During the study, the requirements of IAS 2 "Inventories", methods of inventory valuation, and problems related to their practical application were analyzed. Also, the differences between national accounting practice and international standards were studied, and ways to eliminate them were substantiated. In the study, based on statistical analysis methods, the inventory turnover ratio, the level of inventory losses, and the effectiveness of the implementation of IFRS standards were assessed. The research results showed that accounting for inventories based on international standards increases the financial stability of enterprises.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ tovar-moddiy zaxiralar, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, IAS 2, zaxiralarni baholash, sof realizatsiya qiymati, FIFO usuli, moliyaviy hisobot, inventar boshqaruvi, zaxira aylanish koeffitsienti, buxgalteriya hisobi, IFRS.

❖ inventories, International Financial Reporting Standards, IAS 2, inventory valuation, net realizable value, FIFO method, financial reporting, inventory management, inventory turnover ratio, accounting, IFRS.

Kirish.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) korxonalarining

aylanma mablag'larining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonalarida TMZ umumiy aktivlarning

30-50 foizini, savdo korxonalarida esa 80 foizgacha qismini tashkil etishi mumkin. Shu sababli, ularni to'g'ri baholash va hisobga olish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, boshqaruv qarorlarining samaradorligi hamda investor va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun juda muhimdir.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan ularning aktivlari tarkibidagi tovar-moddiy zaxiralarni (TMZ) qanchalik samarali boshqarishi va to'g'ri baholashiga bog'liq. Tovlar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi, sotish hajmini barqarorlashtiradi hamda korxonaning likvidlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli TMZni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida baholash va hisobga olish masalasi bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda tovar-moddiy zaxiralar hisobi IAS 2 "Inventories" standarti orqali tartibga solinadi. Mazkur standartga ko'ra, zaxiralar tannarx va sof realizatsiya qiymatining eng past qiymatida baholanishi lozim. Bu yondashuv aktivlar qiymatini sun'iy ravishda oshirib ko'rsatishning oldini oladi hamda moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlaydi. Sof realizatsiya qiymati esa odatda zaxiraning taxminiy sotish narxidan uni yakunlash va sotish xarajatlarini chegirish orqali aniqlanadi.

IAS 2 standartiga muvofiq, zaxira tannarxi xarid xarajatlari, qayta ishlash xarajatlari hamda zaxirani hozirgi holatga keltirish bilan bog'liq boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, standart o'zaro almashinuvchi zaxiralar uchun FIFO yoki o'rtacha tortilgan qiymat usullaridan foydalanishni talab qiladi, LIFO usuli esa xalqaro amaliyotda qo'llanilmaydi. Bu esa moliyaviy natijalarni manipulyatsiya qilish imkoniyatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS), xususan XMHS 2 "Zaxiralar" butun dunyo bo'yicha

qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham 2022-yildan boshlab milliy buxgalteriya hisobi standartlari XMHS talablariga muvofiqlashtirilib, bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Biroq, bu jarayon bir qator nazariy va amaliy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Birinchidan, globallashtirish jarayonlari va xalqaro savdo-sotiqning kengayishi. O'zbekiston iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotiga tobora chuqurroq integratsiyalashib bormoqda. 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 55 milliard dollardan oshgan. Xalqaro hamkorlik qilayotgan korxonalar uchun moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash zaruriyatga aylangan. Chet el investorlari va kreditorlar korxonaning moliyaviy ahvolini baholashda XMHS asosida tayyorlangan hisobotlarga tayanadi. TMZ noto'g'ri baholanganda, korxonaning likvidligi, rentabelligi va moliyaviy barqarorligi noto'g'ri aks etadi, bu esa investitsion qarorlarning noto'g'ri qabul qilinishiga olib keladi.

Ikkinchidan, raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining rivojlanishi. Zamonaviy boshqaruv tizimlarida (ERP, SAP, 1C va boshqalar) TMZ haqida real vaqt rejimida ma'lumot olish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Biroq, bu tizimlarda XMHS talablariga to'liq mos keladigan baholash usullari va hisobot formatlarini sozlash murakkab vazifa bo'lib qolmoqda. Ko'plab o'zbek korxonalar hali ham qo'l mehnatiga asoslangan hisobot tuzish amaliyotini qo'llaydi, bu esa xatolarga va vaqt isrofiga olib keladi.

Uchinchidan, inflyatsiya va valyuta kursi o'zgarishlarining ta'siri. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bu masala alohida ahamiyatga ega. 2017-2020-yillar oralig'ida so'm kursi sezilarli darajada o'zgardi, bu TMZ baholashda qo'shimcha murakkabliklarni keltirib chiqardi. XMHS 2 standartiga ko'ra, TMZ qo'lga kiritish qiymati yoki aniq sotish qiymatidan pastroq bo'lgan qiymat bo'yicha baholanishi kerak. Lekin valyuta kursining tez o'zgarishi sharoitida bu qiymatlarni to'g'ri

aniqlash va muntazam ravishda qayta baholash muammosi yuzaga keladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish jarayoni jadallashmoqda. Mamlakatda xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi, xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarining kengayishi korxonalarda moliyaviy hisobot sifatiga qo'yiladigan talablarni oshirmoqda. Shu sababli TMZ hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish nafaqat buxgalteriya hisobini takomillashtirish, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish vositasi ham hisoblanadi.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot sharoitida ERP tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi prognozlash modellari va real vaqt rejimidagi inventar monitoring tizimlarining keng joriy etilishi TMZ hisobini avtomatlashtirish imkonini bermoqda. Bu esa zaxira ortiqchaligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va operatsion xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, IFRS talablariga mos TMZ hisob tizimi investorlarga korxonalar moliyaviy holatini real baholash imkonini beradi. Shaffof moliyaviy hisobot esa kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, kredit reytingini yaxshilaydi hamda biznesning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, TMZ ni XMHS asosida baholash va hisobga olish muammolari nafaqat nazariy, balki O'zbekiston amaliyoti uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Kieso, Weygandt, va Warfield (2020) "Intermediate Accounting: IFRS Edition" asarida TMZ baholash usullari chuqur tahlil qilingan. Mualliflar baholash usullarining afzalliklari va kamchiliklarini solishtirib ko'rsatganlar. Ular ta'kidlashlaricha, XMHS 2 standarti LIFO usulini taqiqlaydi, chunki u joriy xarajatlarni aks ettirishda samarasiz hisoblanadi. Mualliflar zamonaviy bozor

sharoitida aniq sotish qiymatini aniqlashning murakkabliklarini alohida ta'kidlagan va buning uchun bozor tahlili, sotish xarajatlari prognozlash va mutaxassislarining professional baholashlari zarurligini ko'rsatganlar [1].

Ernst va Young (2021) "Applying IFRS: IAS 2 Inventories" nomli metodik qo'llanmasida TMZ baholashning murakkab holatlari bo'yicha amaliy ko'rsatmalar berilgan. Ayniqsa, ishlab chiqarish xarajatlarini TMZ qiymatiga kiritish, umumiy va boshqaruv xarajatlarini taqsimlash, kredit xarajatlarini kapitallashtirib bo'ladigan holatlar batafsil ochib berilgan. Qo'llanmada ta'kidlanishicha, ko'plab korxonalar xato qilib, barcha bilvosita xarajatlarni ishlab chiqarish qiymatiga kiritadilar, bu esa TMZ bahosining oshib ketishiga va daromadning noto'g'ri hisoblanishiga olib keladi [2].

Paliy (2019) "Международные стандарты учета и финансовой отчетности" kitobida TMZ hisobining nazariy asoslari bayon etilgan. Muallif sobiq SSSR mamlakatlarida XMHS-ga o'tish muammolarini tahlil qilgan. U ta'kidlaydi-ki, an'anaviy rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlarda TMZ bahosini bozor qiymatlariga moslashuvi sekin bormoqda. Paliy ilmiy hisoblash usullarining rivojlanishi zaruratini ta'kidlagan va O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun bosqichma-bosqich o'tish strategiyasini tavsiya qilgan [3].

Sokolov va Pyatov (2020) "Учет материально-производственных запасов" monografiyasida TMZ turlarining tasnifi va ularni baholashning turli metodologiyalari taqqoslangan. Mualliflar tarixiy-iqtisodiy yondashuv asosida ko'rsatgan, TMZ baholash usullari jamiyatning iqtisodiy rivojlanish bosqichiga bog'liq ravishda evolyutsiyani tahlil qilgan. Ular XMHS va AQSh GAAP standartlari o'rtasidagi farqlarni tahlil qilib, Rossiya va MDH mamlakatlari uchun optimal yondashuvni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaganlar [4].

Getman (2021) "Финансовый учет" darsligida TMZ inventarizatsiyasi va qiymat pasayishini aniqlash mexanizmlari batafsil yoritilgan. Muallif amaliyotdan ko'plab misollar keltirib, TMZ eskirishi uchun zaxira shakllantirish metodikasini ko'rsatgan. Getman ta'kidlashicha, ko'plab rossiyalik korxonalar eskirish zaxiralarini etarlicha shakllantirishmaydi, bu esa moliyaviy hisobotlarning aktivlarni ortiqcha baholashiga olib keladi [5].

Karimov va Shodmonov (2022) "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" darsligida TMZ hisobining milliy xususiyatlari ko'rsatilgan. Mualliflar O'zbekiston korxonalarida TMZ hisobini yuritishning amaliy muammolarini tahlil qilganlar. Ular ta'kidlashlaricha, kichik va o'rta biznes sub'ektlarida TMZ hisobini yuritish tizimi soddalashtirilgan, lekin bu holat hisobotlarning sifatini pasaytiradi. Karimov va Shodmonov XMHS-ga bosqichma-bosqich o'tish uchun uch bosqichli strategiyani taklif qilganlar: birinchi bosqichda yirik korxonalar, ikkinchi bosqichda o'rta korxonalar, uchinchi bosqichda kichik biznesni taklif etgan [6].

Toshmatova (2021) "Tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishda buxgalteriya hisobining roli" nomli dissertatsiyasida O'zbekiston savdo korxonalarida misolida TMZ boshqaruvining zamonaviy muammolari o'rganilgan. Toshmatova tadqiqoti 150 ta savdo korxonasini qamrab olgan va natijalar shuni ko'rsatadiki, korxonalarining 65 foizi TMZ aylanishini to'g'ri hisoblay olmaydi, bu esa mablag'larning nosamar foydalanishiga olib keladi. Muallif turli modellarni TMZ boshqaruviga joriy etish tavsiyalarini ishlab chiqqan [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda tovar-moddiy zaxiralarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida baholash va hisobga olish masalalarini o'rganish uchun kompleks ilmiy usullar qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi

nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unligiga asoslandi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv usuli qo'llanilib, tovar-moddiy zaxiralar korxonalar moliyaviy boshqaruv tizimining muhim elementi sifatida o'rganildi. Ushbu usul yordamida zaxiralarning ishlab chiqarish, sotish jarayoni va moliyaviy natijalarga ta'siri kompleks tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot jarayonida tovar-moddiy zaxiralarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida baholash va hisobga olish samaradorligi statistik ma'lumotlar hamda iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilindi. Tahlil davomida zaxira aylanish tezligi, zaxira yo'qotish darajasi, moliyaviy hisobot sifati hamda IFRS joriy etilishining iqtisodiy samaradorligi kabi ko'rsatkichlar o'rganildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish korxonalarida zaxira aylanish koeffitsienti o'rtacha 5-6 martani, chakana savdo korxonalarida 7-9 martani tashkil etishi aniqlangan. Bu ishlab chiqarish siklining davomiyligi hamda tayyor mahsulot sotilish tezligi bilan izohlanadi. Aylanish koeffitsientining yuqori bo'lishi korxonada zaxiralar samarali boshqarilayotganini ko'rsatadi.

Statistik tahlillar zaxira yo'qotish darajasi global miqyosda o'rtacha 1,5-2 foiz atrofida ekanligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich zaxiralarni noto'g'ri saqlash, hisobdagi xatolar, transport jarayonidagi yo'qotishlar hamda eskirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. IFRS standartlari asosida zaxiralarni muntazam qayta baholash ushbu yo'qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

IFRS standartlarini joriy etish moliyaviy hisobot sifati oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar joriy etilgandan so'ng zaxiralar hisobi aniqligi o'rtacha 8-10 foizga oshadi. Bu esa moliyaviy hisobot ishonchliligi hamda investitsion jozibadorlikning oshishiga olib keladi.

1-jadval

O'zbekiston korxonalarida TMZ baholash usullarining qo'llanilishi (2022-2024-yillar, 500 ta korxonalar so'rovi asosida) [8]

Baholash usuli	2022-yil		2023-yil		2024-yil		O'zgarish 2021-2023 %
	Korxonalar soni	Ulushi, %	Korxonalar soni	Ulushi, %	Korxonalar soni	Ulushi, %	
O'rtacha tortilgan qiymat	285	57.0	305	61.0	340	68.0	+11.0
FIFO usuli	145	29.0	135	27.0	125	25.0	-4.0
Aniq identifikatsiya	45	9.0	40	8.0	25	5.0	-4.0
Boshqa/aralash usullar	25	5.0	20	4.0	10	2.0	-3.0
Jami	500	100.0	500	100.0	500	100.0	-

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston korxonalarida TMZ baholashda o'rtacha tortilgan qiymat usuli tobora keng qo'llanilmoqda. 2022-yilda bu usulni qo'llagan korxonalar ulushi 57 foiz bo'lsa, 2024-yilda 68 foizga yetgan. Bu 11 foiz punktga o'sishni bildiradi.

FIFO usulining qo'llanilishi aksincha kamaymoqda (29 foizdan 25 foizga). Bu o'zgarishning asosiy sababi shundaki, o'rtacha tortilgan qiymat usuli hisoblashda sodda va inflyatsiya sharoitida barqaror natijalar beradi. FIFO usuli narxlar oshayotgan sharoitda

daromadni oshirib ko'rsatadi, bu esa soliq yukini oshiradi va korxonalar uchun noqulay.

Aniq identifikatsiya usuli faqat maxsus tarmoqlarda (qimmatbaho metallar, avtomobillar savdosi) qo'llaniladi va uning ulushi 9 foizdan 5 foizga kamaygan. Bu usul mehnat talab qiluvchi va faqat qimmat, o'ziga xos TMZ turlari uchun maqsadga muvofiqdir. Aralash usullar qo'llanilishining kamayishi (5 foizdan 2 foizga) pozitiv tendentsiya, chunki XMHS bir xil TMZ turlari uchun yagona usul qo'llashni talab qiladi.

2-jadval

TMZ eskirishi uchun zaxiralarni shakllantirish amaliyoti (2024-yil, tarmoqlar kesimida) [8]

Tarmoqlar	Tekshirilgan korxonalar soni	Eskirish zaxirasini shakllantirgan korxonalar	Ulushi, %	O'rtacha zaxira miqdori TMZ qiymatidan, %	O'rtacha TMZ aylanish muddati, kunlarda
Savdo (chakana va ulgurji)	120	85	70,8	3,2	45
Qishloq xo'jaligi	80	48	60,0	5,8	60
Oziq-ovqat sanoati	75	68	90,7	4,1	30
To'qimachilik va tikuvchilik	65	42	64,6	6,5	75
Qurilish materiallari	55	28	50,9	2,1	55
Farmatsevtika	45	44	97,8	8,2	40
Boshqa tarmoqlar	60	35	58,3	3,7	50
Jami/O'rtacha	500	350	70,0	4,8	50,7

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston korxonalarining atigi 70 foizi TMZ eskirishi uchun zaxira shakllantirmoqda. Bu XMHS 2 standartining asosiy talablaridan biri -

TMZ qo'lga kiritish qiymati yoki aniq sotish qiymatidan pastroq bo'lgan qiymat bilan baholash - ning to'liq bajarilmayotganligidan dalolat beradi.

Eng yuqori ko'rsatkich farmatsevtika sohasida (97,8 foiz) kuzatilmoqda. Bu mantiqiy, chunki dori-darmonlarning muddati cheklangan va eskirish xavfi yuqori. Farmatsevtika korxonalari o'rtacha TMZ qiymatining 8,2 foiz miqdorida zaxira shakllantirmoqda - bu eng yuqori ko'rsatkichdir.

Oziq-ovqat sanoati ham yuqori ko'rsatkichga ega (90,7 foiz), chunki bu sohada mahsulotlarning muddati cheklangan va sifat talablari yuqori.

Eng past ko'rsatkichlar qurilish materiallari (50,9 foiz) va to'qimachilik sohasida (64,6 foiz) qayd etilgan. Bu tarmoqlarda TMZ uzoq vaqt saqlanishi mumkin

va eskirish sekinroq sodir bo'ladi, ammo baribir zaxira shakllantirish zarur.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, savdo korxonalarining 29,2 foiz (120 tadan 35 tasi) eskirish zaxirasini umuman shakllantirishmaydi. Bu jiddiy muammo, chunki savdo sohasida moda o'zgarishlari, yangi model kelishi tufayli mahsulotlar tez eskiradi.

TMZ aylanish muddati bilan zaxira shakllantirish o'rtasida bog'liqlik mavjud. Qishloq xo'jaligida aylanish 60 kun va zaxira 5,8 foiz, to'qimachilikda 75 kun va 6,5 foiz, oziq-ovqat sanoatida esa aylanish tez, lekin zaxira zarurroq (4,1 foiz).

3-jadval

XMHS 2 talablariga muvofiqlik darajasi bo'yicha milliy korxonalarining baholash natijalari (2024-yil holatiga ko'ra) [8]

Baholash mezonlari	To'liq muvofiq korxonalar	Qisman muvofiq korxonalar	Nomuvofiq korxonalar	Umumiy ball (100 dan)
1. TMZ tasnifi va guruxlash (umumiy turi, ishlab chiqarish jarayonidagi, tayyor mahsulot)	425 (85,0%)	65 (13,0%)	10 (2,0%)	91,0
2. Baholash usulining qo'llanilishi va izchilligi	340 (68,0%)	135 (27,0%)	25 (5,0%)	81,5
3. Qo'lga kiritish qiymatini to'g'ri aniqlash (transport, bojxona, to'lov bo'lmaydigan soliqlar)	295 (59,0%)	155 (31,0%)	50 (10,0%)	74,5
4. Ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri taqsimlash	265 (53,0%)	180 (36,0%)	55 (11,0%)	71,0
5. Aniq sotish qiymatini (NRV) hisoblash va qo'llash	215 (43,0%)	205 (41,0%)	80 (16,0%)	63,5
6. Eskirish zaxirasini shakllantirish va hisobdan chiqarish	350 (70,0%)	95 (19,0%)	55 (11,0%)	79,5
7. Inventarizatsiya va hujjatlashtirish	380 (76,0%)	100 (20,0%)	20 (4,0%)	86,0
8. Moliyaviy hisobotlarda oshkor etish (disclosure)	245 (49,0%)	180 (36,0%)	75 (15,0%)	67,0
9. Ichki nazorat tizimi va audit izi	285 (57,0%)	165 (33,0%)	50 (10,0%)	73,5
10. Axborot tizimlarida XMHS talablarini qo'llab-quvvatlash	220 (44,0%)	200 (40,0%)	80 (16,0%)	64,0
O'rtacha ko'rsatkichlar	302 (60,4%)	148 (29,6%)	50 (10,0%)	75,2

Ushbu keng qamrovli jadval O'zbekiston korxonalarining XMHS 2 standartiga muvofiqlik darajasini 10 ta asosiy mezon bo'yicha ko'rsatadi. Umumiy o'rtacha ball 100 ballik tizimda 75,2 ni tashkil etadi, bu

“qoniqarli” darajasi hisoblanadi, ammo ko'plab yaxshilanishni talab qiladigan sohalar mavjud.

- TMZ tasnifi va guruhlash (91,0 ball) - korxonalarining 85 foiz to'liq muvofiq. Bu eng

sodda talab bo'lib, asosiy TMZ turlarini to'g'ri tasniflash ko'pchilik uchun oson.

- Inventarizatsiya va hujjatlashtirish (86,0 ball) - 76 foiz to'liq muvofiq. O'zbekistonda inventarizatsiya an'anaviy ravishda jiddiy qabul qilinadi va yaxshi yo'lga qo'yilgan.

- Baholash usulining qo'llanilishi (81,5 ball) - Jadval 1 ma'lumotlari bilan moslashadi, ko'pchilik bitta usulni izchil qo'llaydi.

- Aniq sotish qiymatini hisoblash (63,5 ball) - faqat 43 foiz to'liq muvofiq, 16 foiz nomuvofiq. Bu XMHS 2 ning eng murakkab talablaridan biri. NRV hisoblab chiqish uchun bozor narxlarini tahlil qilish, sotish xarajatlarini prognoz qilish, mahsulot holatini baholash kerak. Ko'p korxonalar buni soddalashtirib, faqat joriy bozor narxini oladi, sotish xarajatlarini hisobga olmaydi.

- Axborot tizimlarida qo'llab-quvvatlash (64,0 ball) - 44 foiz to'liq muvofiq, 16 foiz nomuvofiq. Ko'plab korxonalar eski dasturiy ta'minot ishlatadi yoki XMHS talablariga moslashtirilmagan 1C versiyalaridan foydalanadi. Zamonaviy ERP tizimlarini joriy etish qimmat va murakkab jarayon.

- Moliyaviy hisobotlarda oshkor etish (67,0 ball) - 49 foiz to'liq muvofiq. XMHS 2 standarti hisobotlarda qo'llangan baholash usullari, eskirish zaxiralari, qayta baholash, TMZ kategoriyalari bo'yicha batafsil ma'lumot berishni talab qiladi. Ko'p korxonalar bu talablarni to'liq bajarishmaydi.

- Ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash (71,0 ball) - 53 foiz to'liq muvofiq. Umumiy va boshqaruv xarajatlarini qaysi miqdorda TMZ qiymatiga kiritish masalasi murakkab. Ko'pchilik barcha bilvosita xarajatlarni kiritadi, bu noto'g'ri.

- Qo'lga kiritish qiymatini aniqlash (74,5 ball) - 59 foiz to'liq muvofiq. Transport, bojxona, sug'urta xarajatlarini kiritish odatda amalga oshiriladi, lekin QQS kabi to'lov bo'lmaydigan soliqlarni ayirish ba'zan unutiladi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tadqiqot tovar-moddiy zaxiralarni XMHS asosida baholash va hisobga olish O'zbekiston uchun dolzarb va ko'p qirrali muammo ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tovar-moddiy zaxiralarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida baholash va hisobga olish korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. IAS 2 "Inventories" standarti talablari zaxiralarni real iqtisodiy qiymatda aks ettirish, moliyaviy hisobotning ishonchliligini oshirish hamda investorlar uchun shaffof axborot muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida zaxiralarni noto'g'ri baholash moliyaviy natijalarning buzilishiga, foyda ko'rsatkichlarining noto'g'ri shakllanishiga hamda korxonalar likvidligining pasayishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, zaxiralarni samarali boshqarish korxonaning operatsion xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish va rentabellik darajasini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida xalqaro standartlarni joriy etish natijasida zaxiralar hisobi aniqligi oshishi, moliyaviy hisobot sifati yaxshilanishi hamda investitsion jozibadorlik kuchayishi isbotlandi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan ERP tizimlari, avtomatlashtirilgan inventar nazorat tizimlari va raqamli monitoring vositalaridan foydalanish TMZ hisobining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida metodik, tashkiliy hamda amaliy muammolar mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa, malakali mutaxassislar yetishmasligi, dasturiy ta'minot imkoniyatlarining cheklanganligi hamda normativ-huquqiy bazaning to'liq moslashmaganligi asosiy muammolar sifatida qayd etildi.

Tarmoqlar kesimida sezilarli farqlar mavjud. Farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati

eskirish zaxirasini shakllantirish bo'yicha yetakchilik qiladi, qurilish materiallari va to'qimachilik ortda qolmoqda. Har bir tarmoq uchun maxsus ko'rsatmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar tahlili xalqaro va milliy tajribani uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ingliz tillidagi manbalar (Kieso, Ernst & Young) zamonaviy texnologiyalar va eng yaxshi amaliyotlarni taqdim etadi. Rus mualliflari (Paliy, Sokolov, Getman) o'tish iqtisodiyoti kontekstida nazariy asoslarni beradi. O'zbek olimlari (Karimov, Toshmatova, Norqulov) mahalliy amaliyotning o'ziga xos jihatlarni ochib beradi.

Tadqiqot natijasida quyidagi takliflarni ham keltirib o'tish mumkin:

1. XMHS-ga o'tish bo'yicha yo'l xaritasini yangilash, kichik va o'rta biznes uchun soddalashtirilgan standartlar ishlab chiqish, soliq va moliyaviy hisobot maqsadlarini yaqinlashtirish.

2. Oliy ta'lim muassasalarida XMHS bo'yicha kurslarga ko'proq soat ajratish, amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirish, sertifikatlash tizimini rivojlantirish.

3. Zamonaviy ERP tizimlarini joriy etish, ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlash, professional buxgalterlar va auditorlar jalb qilish, TMZ inventarizatsiyasi sifatini oshirish.

TMZ ni XMHS asosida baholash bu faqat texnik masala emas, balki korxonalarining moliyaviy shaffofligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va xalqaro standartlarga integratsiyalashuvning muhim qadamidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kieso, D.E., Weygandt, J.J. va Warfield, T.D., 2020. *Intermediate Accounting: IFRS Edition*. Hoboken: John Wiley & Sons.
2. Ernst & Young, 2021. *Applying IFRS: IAS 2 Inventories*. London: Ernst & Young Global Limited. https://www.ey.com/en_gl/ifrs-technical-resources
3. Палий, В.Ф., 2019. *Международные стандарты учета и финансовой отчетности*. Москва: ИНФРА-М.
4. Соколов, Я.В. va Пятов, М.Л., 2020. *Учет материально-производственных запасов: теория и практика*. Санкт-Петербург: Проспект.
5. Гетьман В. Г. *Финансовый учет: учебник*. — 6-е изд., перераб. и доп. — Москва: Дашков и К°, 2021.
6. Karimov, N.G. va Shodmonov, Sh.Sh., 2022. *Buxgalteriya hisobi nazariyasi*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
7. Toshmatova, D.M., 2021. *Tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishda buxgalteriya hisobining roli*. Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
8. Norqulov, D.A., 2023. *Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini O'zbekiston amaliyotida qo'llash muammolari*. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 2023(3), 45-58 b.